



**NAVOIY, BUXORO VA SAMARQANDDA AGRAR KLASTERLAR,
BALIQCHILIK VA XORIJIY INVESTITSIYALAR ORQALI ISH O'RINLARI
YARATISHNING IJOBIY NATIJALARI**

Tuyev Fazliddin Erkinovich

Buxoro davlat Pedagogika institute dotsenti

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 2018 yildan boshlab Buxoro va Samarqand viloyatlarida amalga oshirilgan agrar va baliqchilik loyihalari, shuningdek, xorijiy investitsiyalar asosida barpo etilgan issiqxonalar va zamonaviy texnologiyalar ta'siri tahlil qilingan. "Buxoro-Agro" erkin iqtisodiy zonasi, Rossiya va Xitoy bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma korxonalar, baliqchilik klasterlari, shuningdek, yangi ish o'rinlari va eksport hajmi haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Maqolada shu sohalardagi investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *Buxoro-Agro, erkin iqtisodiy zona, xorijiy investitsiyalar, issiqxona, baliqchilik, agrar klaster, eksport, ish o'rinlari*

O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirish va ish o'rinlarini ko'paytirish davlat siyosatida ustuvor vazifalardan biri bo'lib, bu maqsadda qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2018 yilda "Buxoro-Agro" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi va undagi qo'shma korxonalar, issiqxonalar, shuningdek baliqchilik klasterlari, hamda xorijiy investitsiyalar bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish sohasida sezilarli natijalarga erishildi. Ushbu maqolada mazkur sohalardagi asosiy loyihalar va ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri tahlil qilinadi.

2018-yil 10-iyuldagi O'zbekiston Respublika Prezidenti qarori bilan "Buxoro-agro" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3843-sonli qarori asosida Jondor, Kogon, Peshko', Romitan va Buxoro tumanlaridan 3000 gektar yer ajratilgan. "Buxoro-Agro EIZning 193 gektariga, ya'ni 68 ta loyihaga 65,3 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy moliya institutlari mablag'lari hisobidan kredit liniyalari ochilib, 48 tasiga 51,8 mln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar ajratilgandi. Shundan, 5 ta loyiha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilgan[1]. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilib, klaster tizimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgandi. "Buxara Varnet" korxonasi ham ana shu imkoniyatlar samarasidir[2]. Buxoro tumanidagi "Buxara Varnet" O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasining umumiy qiymati 120 mln. AQSh dollardan ziyod bo'lib, bu mablag'ning hammasini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni tashkil etib, 10 mln. AQSh dollar tashqi investitsiya o'zlashtirilib, 13 gektar maydonda issiqxona 2019-yilda qurib bitkazilgandi. "Buxara Varnet" MChJ negizida qiymati 15,0 mln. AQSh dollarga teng





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



zamonaviy issiqxona asbob-uskunalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yish hisobiga 45,5 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida budjetga qo‘shimcha 2,3 mlrd. so‘m tushum tushishi hamda 300 ta doimiy, 600 ta dan ortiq mavsumiy ish o‘rni yaratilgan[3]. Korxonalar tomonidan 2021-yilda 1 mln. AQSh dollariga teng mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 2 mln. AQSh dollarni tashkil etgandi. Hosildorlik gektariga 150 sentnerga yetkazilgan. Bu yerda in-vitro texnologiyasi asosida yiliga 90 million dona ko‘chat yetishtirilib, ichki bozorlarga chiqargan edilar[4].

Jondorda Rossiya Federatsiyasining “Ekzim Agro Logistik” MChJ negizida qiymati 20 mln. AQSh dollariga teng zamonaviy issiqxonalar qurish loyihasini amalga oshirish natijasida 80,0 mlrd. so‘mlik sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarilishi, shundan, 3,0 mln. AQSh dollarlik mahsulotlar eksportga yo‘naltirilishi va budjetga qo‘shimcha qo‘shimcha 4,5 mlrd. so‘m tushum tushishi hamda 180 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgandi[5]. Yana bir xuddi shunday loyiha Afg‘onistonlik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Aria Agro Invest Compani” qo‘shma korxonasidir. Bunda bug‘doyni qayta ishlash tegirmoni va qo‘shimcha loyihada kir yuvish kukuni ishlab chiqarish bo‘yicha qiymati 2 mln. AQSh dollarga teng bitim imzolangan[6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-sonli hamda 2017-yil 7-avgustdagi “Tabiiy suv havza uchastkalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berish va baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 593-sonli qaroriga asosan, tabiiy suv havzalarida tender tanlovlari o‘tkazish tartibi belgilangan. Mazkur qarorga asosan, 2018-yil 9-yanvarda Buxoroda barcha tabiiy suv havzalari bo‘yicha tender tanlovlari o‘tkazilgan[7]. Viloyatda baliqchilik tarmog‘ini yanada kengaytirish maqsadida 2022-yilda 51 ta loyihani amalga oshirish hisobiga qo‘shimcha 574 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Viloyatning Buxoro, G‘ijduvon, Jondor, Shofirkon, Kogon, Olot va Qorako‘l tumanlarining 1300 ta aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish uchun “Buxorobaliqsanoat” va “Buxorobaliq” MChJlari va “Buxoroneftqurilishmontaj” MChJ baliqchilik klasteri tomonidan baliqchilik kooperatsiyasi tashkil etiladi. Natijada 1,3 ming nafar aholining doimiy bandligi ta‘minlanadi va oilaviy daromadi oshagandi. Buxoro tumanidagi “Buxorobaliq” MChJ baliqchilik klasteri bazasida baliqchilik laboratoriyasi tashkil etilgan. Bundan tashqari, intensiv suv havzalaridagi o‘simlikxo‘r baliqlar uchun “ryaska”, “azolla” hamda “xlorella” kabi suv o‘tlarini ko‘paytirish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, sho‘rlik darajasi va iqlim sharoitiga mos bo‘lgan baliq turlarini ko‘paytirish bo‘yicha Turkiya va Gresiya davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan[8]. Buxoroda 2023-yilning 1-aprel holatiga, jami: 349 ta baliqchilik sub’ektlari faoliyat ko‘rsatib, ularga ajratib berilgan umumiy yer maydoni 34 ming 539 gektarni tashkil etgan. Jumladan, 8 ta tabiiy suv havzalari 32 ming 81 gektarni, shundan, 27 ming 738 gektar suvli maydon va 1225 gektar sun‘iy suv havza baliqchilik xo‘jaliklari faoliyat yuritgan edi[9].



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Samarqand viloyatda 443 ta xo‘jalik baliqchilik bilan shug‘ullangan va ular tasarrufida 11,6 ming gektar baliq havzasi mavjud. Havzalarning 1957 gektari sun‘iy maydonni va 9 ming gektar tabiiy havzani tashkil etgandi. Viloyatda baliqchilikni rivojlantirish maqsadida 31,5 mlrd. so‘mlik 21 ta loyiha amalga oshirilib, 43 gektarda intensiv baliq havzasi tashkil etilgandi va 153 ta ish o‘rni yaratilgan edi. Bundan tashqari yana 41 mlrd. so‘mlik 54 ta dastlabki loyihalar amalga oshirilib, 110 gektar maydonda intensiv havza va 257 ta ish o‘rni tashkil etilgan. Baliqchilik klasterlarida 1322 gektar maydonda 26,4 milliard so‘mlik 5287 ta aerator–hovuzlarda baliqlarni kislorod bilan ta‘minlash uskunasini o‘rnatilgandi[10].

Paxtachidagi «Baliq Al Said» xo‘jaligi ko‘p tarmoqli bo‘lib, jami yer maydoni 73 gektardan iborat. Shundan 55 gektari baliq yetishtirishga mo‘ljallangan suv havzasi hisoblanadi. Suv havzalariga 78 ming dona tovar baliq, 420 ming dona segalatka tashlangan. «Baliq Al Said» xo‘jaligi 2022-yil Qirg‘izistonga 20 ming AQSh dollari miqdorida Karp baliq‘i chavog‘i, Qozog‘istonga 100 ming AQSh dollari miqdorida tilapiya baliq‘i chavoqlarini eksport qilgan[11]. Oddiy usulda bir gektar havzadan o‘rtacha 15-20 sentner baliq olinsa, Vetnam texnologiyasida bu ko‘rsatkichni 150-200 sentnergacha yetkazish mumkin. Shu bois baliq eksport qilish bo‘yicha Vetnam dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Samarqandda baliqchilikni sun‘iy havzalarda 100 sadok ya‘ni “qafas” usulida rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar mavjud. Vetnamda 4 ta sadokka bitta oila qaraydi. Demak, 4 ta sadok butun oilani boqadi. Ta‘kidlash joizki, vetnamliklar bu ishga ilmiy asosda yondashgani bois, bir qafasda 3,5 tonnadan 4,5 tonnagacha, ayrim hollarda 5 tonnagacha baliq olinadi [12].

Navoiyning Qiziltepa tumanida “Ilxomjon kelajagi” fermer xo‘jaligi tashabbusi bilan “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi va “Haida fishery” Xitoy-O‘zbekiston qo‘shma korxonasi hamkorligida zamonaviy texnologiyalar asosida baliq yetishtirish borasida o‘zaro kelishuvlarga kelgan edi. “Ilxomjon kelajagi” fermer xo‘jaligini rahbarining takidlashicha: Xitoyliklar bilan aloqani yo‘lga qo‘yganimizdan keyin hosildorligimiz 25-30 tonnaga chiqdi. Agarda belgilangan talablarga rioya qilingan holda baliqlar oziqlantirilsa 1 gektar maydonga tashlangan 400-800 grammlik chavoqlar 4-5 oyda 1200 grammgacha yetilib, og‘irligi kamida 1600 grammga yetadi degandi[13].

2024-yil asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilgan. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 144,6 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 29,3 foizi o‘zlashtirilgan. Shundan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar 32,5 trln so‘m yoki o‘zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 6,6 foizini tashkil etgandi. Respublika budjeti mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko‘rsatkichlar Surxondaryo viloyatida hududdagi jami investitsiyalarning – 8,3 foizini, Samarqand viloyati – 8,1 foiz va Sirdaryo viloyatida – 7,6 foiz miqdoriga to‘g‘ri kelgan[14].





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2024-yil Respublikada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 444 586,4 mlrd so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 218 824,1 mlrd so'mni (102,2 foiz), chorvachilik mahsulotlari – 225 762,3 mlrd so'mni (104,0 foiz) tashkil qildi. Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (55 225,4 mlrd so'm), Andijon (44 374,9 mlrd so'm), Qashqadaryo (42 693,2 mlrd so'm), va Farg'ona (42 666,4 mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam ega hududlarga hajmga Sirdaryo viloyati (14 517,1 mlrd so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (16 687,0 mlrd so'm) va Navoiy viloyatini (20 206,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin. Yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (104,8 foiz), Navoiy (104,6 foiz), Namangan (104,3 foiz) va Qashqadaryo (104,2 foiz) viloyatlarida qayd etildi. Jizzax (101,1 foiz), Sirdaryo (101,4 foiz) va Toshkent (101,6 foiz) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi[15].

Xullas tahlil qilingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Buxoro va Samarqand viloyatlarida amalga oshirilgan agrar va baliqchilik loyihalari mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Xorijiy investitsiyalar hisobidan qurilgan issiqxonalar va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan klasterlar mahsulot hajmini, eksport ko'rsatkichlarini va ish o'rinlarini sezilarli darajada oshirdi. Bu jarayonlar mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilashga va sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelgusi yillarda ushbu tajribalarni boshqa hududlarga kengaytirish orqali qishloq xo'jaligi salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1669-yig'ma jild, 58-varaq.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1753-yig'ma jild, 147-148-varaqlar.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1753-yig'ma jild, 148-varaq.
4. Buxoro tuman hokimligi joriy arxivi. 2023-yil hisoboti, 41-yig'ma jild, 78-varaq.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1753-yig'ma jild, 149-varaqlar.
6. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 28-yig'ma jild, 14-varaq.
7. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 9-yig'ma jild, 18-varaq.
8. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 9-yig'ma jild, 23-varaq.
9. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 11-yig'ma jild, 91-varaq.
10. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 19-yig'ma jild, 31-varaq.
11. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond. 1-ro'yxat. 16-yig'ma jild, 12-varaq.
12. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond. 1-ro'yxat. 9-yig'ma jild, 21-varaq.
13. Navoiy viloyat hokimligi joriy arxivi. 18-yig'ma jild, 8-varaq.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



14. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Тошкент-2024. –Б. 122.

Ўзбекистон

15. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Тошкент-2024. –Б. 87.

Ўзбекистон

